

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI
YO'LLARI**

Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10419943>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning shakl, usul va metodlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sinf, ta'lim, dars, qobiliyat, masala, ixtiro, usul, ijodiy fikr.

**EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP STUDENTS' INTELLECTUAL ABILITIES IN
ELEMENTARY MATHEMATICS CLASSES**

Abstract. This article talks about forms, methods and methods of developing inventive abilities of elementary school students.

Key words: Class, education, lesson, ability, problem, invention, method, creative thought.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОЙ МАТЕМАТИКИ**

Аннотация. В данной статье говорится о формах, методах и методах развития изобретательских способностей учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Класс, образование, урок, способность, проблема, изобретение, метод, творческая мысль.


Bugungi kunda jamiyatga noan'anaviy qarorlar qabul qiladigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual kuchli ijodkor va shijoatli insonlar kerak. Bu kabi shijoatli ijodkor shaxslarni yaratish usullaridan eng muqobillaridan biri – Ixtirochi masalalarini yechish nazariyasidir. Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasining asoschisi G.S.Altshuller va uning izdoshlarining ta'kidlashicha, ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi – bu o'zida aniq hisob – kitobni, mantiqni va ichki sezgini birlashtiruvchi, yangi boshqaruv jarayonining yaratilishidir.

Qo'shimcha ta'lim darslarida ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi yangi, noan'anaviy usul hisoblanadi va bu kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashni osonlashtiradi, chunki bolalarga ham qiziqarli va ularda yahshi kayfiyatni yuzaga keltiradi. Barcha ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi o'quv darslari jarayonlari – bu ijod, sifat yaratuvchisi, tadqiqotchi, izlanuvchi va konstruktor sifatida ko'proq bolalarning o'zlari harakatda bo'ladi.

Ishlanmaning zamonaviyligi va ushbu dasturning yaratilishi shunisi bilan ustunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qarama – qarshilik va ziddiyatlarni hal qilishlariga yordam beradi, o'quvchi talablarini qo'shimcha har qanday hayotiy muammolarga qaratish va tezda hal qilishga xizmat qiladi.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasining dasturi 1-4 sinflar uchun to'rt yillik boshlang'ich ta'limi tarkibiy yo'nalishiga ega va qo'shimcha ta'lim dasturiga ega. Dastur 1-sinflar uchun 4 yillik boshlang'ich maktabda to'garak tarzida tatbiq etiladi.

Quyida matematik krossvordlardan namuna keltiramiz.



Dastur davlat ta'lim standarti talablari va kichik yoshdagi o'quvchilarini yoshini hisobga olgan holda tuzilgan. Dastur boshlang'ich o'quvchilarini intellektual ko'nikmasini rivojlantirishga, o'quvchilarni ijodiy salohiyatini oshirishga, kelajakda bolani ixtirochi shaxs sifatida shakllanishiga, o'zini namoyon qilishiga, ijodiy kompetensiyalarini ko'rsata olishiga xizmat qiladi. Ikkinchi avlod ta'lim standarti doirasida shaxs turli xil yoshda hayotiy, ijtimoiy masalalarda universal qarorlar qabul qilishi ta'limni asosiy maqsadlaridan biridir.

Shu maqsadda dastur doirasida sezilarli tarzda ish jarayonini faolligi oshirilishi, shu bilan birga o'quvchilarning dinamik harakatini kuchayishi ko'zda tutilgan. Universal qarorlarni turli xil jarayonlarda qabul qilish va intellektini rivojlantirish, mustaqil harakatlanish ko'nikmalariga ega bo'lishiga qaratilgan.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi kursining maqsadi – hayotning turli xil holatida paydo bo'ladigan muammolarni yechishga tayyor ijodkor shaxsni tarbiyalashga qaratilgan muhit yaratishdir.

Kursning vazifalari:

Insonparvar va estetik tushunchalarni, umumiy dunyoqarash tushunchasini “ Ziyon yetkazma” shiori ostida jamiyatda o‘zini tuta bilish normalariga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi darslarida kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘zini anglashni, o‘zini rivojlantirishni ijodiy yondashish orqali shakllantirish.

Kichik yoshdagi o‘quvchiga dialektik, sistemali, asotsiativ va ijodiy fikrlash orqali shaxsni rivojlantirish sharoitini yaratish.

Boshlang‘ich maktabda ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi darslarida maxsus va samarali ixtiroviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni shakllantirish.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi 1-4 sinflarga qo‘yilgan 4-yillik umumiy boshlang‘ich ta‘lim standarti maqsadi va talabiga mos keladi. Maktabning asosiy ta‘lim – tarbiya jarayoni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning yagona sistemasini yaratishdir.

Ushbu dastur to‘g‘ridan – to‘g‘ri o‘quv jarayoni bilan bog‘liq. N.F.Vinogradova muhbirligi ostida o‘quv jarayoni ni umumiy kuchaytirishga, real qiziqishlari va o‘quvchilarni yoshlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan “ XXI asr boshlang‘ich maktabi” boshlang‘ich ta‘lim dasturi asosida mavzular va muloqot muammolari darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun tanlab olingan.

Dastur rus tili va adabiy o‘qish jarayonida, matematikada, tashqi olamda, tasviriy san’atda, texnologiyada ijodkor shaxs tarbiyasi va yosh o‘quvchini ijodiy potensiyali, shu bilan birga olgan bilimlarini integratsiyalashga hizmat qiladi.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturining afzalligi maksimal amaliyotga qaratilganligidir. Ushbu kursni qo‘llanish prinsipini navbatdagi o‘quv jarayonlarida ham qo‘llash mumkin: biologiya, fizika, kimyo, san’at, texnologiya, filologiya va hokazo.

Dastur variativ hisoblanadi. O‘quvchining o‘zining tajribasiga tayangan hilda, o‘quvchilarni tayyorgarligini hisobga olib, ma’lum sinf sharoitidan kelib chiqib o‘quv jarayoniga ajratilgan ma’lum mavzularni dars soatlariga joylab chiqish imkoniyati beriladi.

Darslarni mavzular ketma – ketligida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dars kurslarining tuzilish prinsipiga mos keladi, ketma – ketlik asosiy bazasi sistemaliligini ta’minlaydi.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturini boshlang‘ich sinflarda qo‘llash yangi standartlarga yondashuv asosida qurilgan va muammoli pedagogic texnologiyani qo‘llanilishida o‘z aksini topdi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning bilim olishidakeng imkoniyatlar, bilim va

ko'nikmalar, shaxs kompetentligini oshirishga, dunyoni anglashga tayyorgarligi va qobiliyatini, bilim olish, hamkorlik, mustaqil bilim olish va 'z ustida ishlashni ta'minlaydi.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturini 1-4 sinflarda qo'llashning 4 yillik boshlang'ich ta'lim jarayonida afzalligi 3ta yo'nalishdan iborat, bu o'z navbatida har bir yo'nalish ma'lim qo'shimcha bilim turlarini taklif etadi, o'quv jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni bartaraf etadi.

Birinchi yo'nalish - "Ijodiy o'ylar taraqqiyoti" (IO'T) 1-2sinflar sistemasi.

Maqsadi – didaktik o'yinlar orqali maqsadli fantaziya qilishga o'rgatish. Buning asosiga izlanish asotsiatsiyasi treningi joylangan.(„... ga o'hshaydi).

Janni Rodarining fantaziyani qo'llashi ishlatiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ijodiy o'ylar va ongni rivojlantirish mashqlarini bajaradilar. Muammoli vaziyatlar yaratish va ularni yechimini toppish orqali kichik yoshdagi o'quvchilar fantastik buyumlar, obrazlar va voqealarni aqlan yaratishni o'rgangan. Yaratish jarayonida o'quvchilarda estetik ong va insoniylik tushunchalari, dunyoni anglash nigohi Sistema butunligi, "Yomonlik qilma!" shiori ostida jamiyatda xulqiy normalarga amal qilish qobiliyati shakllanadi.

Ikkinchi yo'nalish – "Sistemali ong" - 3-sinf.

Maqsadi – bolani mantiqiy ongini faollashtirish, narsa – buyumlar va voqealarni boshqa obyektlar bilan bog'liqligini ko'ra bilish ko'nikmalari, uning ijodiy salohiyati, mahsus " Ijodiy o'ylar taraqqiyoti" mashqlari orqali dialektik ongni asosiga fundamenti ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi tushunchasiga asoslangan holda qo'yish. Ushbu bosqichda bolalar tayanch sxemalar orqali topishmoqlar tuzishni o'rganishadi, ularni tarkibiy komponentlari va funksiyalari bilan " To'qqiz ekrancha" sistemali asosi bilan tushuntiriladi

Uchinchi yo'nalish – "Dialektik tuzilgan ong" – 4-sinf.

Maqsadi – bolalarga ixtiroviy masalalarni yechish va tahlil qilishni o'rgatish.

Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi prinsiplari va tamoyillarini qo'llagan holda, dialektik ongni rivojlantirishga yo'naltirish.

Ushbu bosqichda, kichik yoshdagi o'quvchilarga tushunarli formada, bolalar ixtiroviy masalalarni yechishda ertakli va kundalik hayotdagi voqealar prinsiplari bilan tanishadilar. Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi darslarida o'rganilgan mavzular natijalari bo'yicha qo'shimcha ta'limni tashkillashtirish formalari turlicha:

- Natija bo'yicha: yasalgan (o'yinchoqlar, rasmlar, modellar, maketlar, va hokazo).
- Tadbirlar bo'yicha: spektakllar, viktorinalar, ko'rik – tanlovlar, ko'rgazmalar.
- Bolalar soni bo'yicha: individual, guruhli yoki jamoaviy taqdimot.

- Axborot texnologiyalarini ishlatish orqali: rasmlar, kompyuterda tirik rasmlar yaratib.

Sifatli natijalarga erishish maqsadida, o'quv jarayoni zamonaviy texnik uskunalar, ko'rgazmali tasviriy qo'llanmalar va o'yinli rekvizitlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Multimediya elementlari orqali vizuallashtirilgan o'quv darslari o'quvchilarda samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Kanikul davrida ta'lim jarayoni o'zgarishi mumkin (spektakl, ko'rgazmalar, viktorinalar, ko'rik – tanlovlar, ota – onalar ishtirokida bayram tadbirlari).

O'quv darslari barcha sinflar ishtirokida, shu bilan birga guruhlarda, kichik guruhlarda individual olib borilishi mumkin. Har bir o'quv darsi 2 qismdan iborat: nazariy va amaliy darslar.

Darsni nazariy qismini o'qituvchi bolalarni Yoshi, psixologik va individual holatini hisobga olgan holda rejalashtiradi. Dastur har xil o'yin va usullarni, tasviriy san'at, adabiy – badiiy, jismoniy va loyiha jarayonlarni o'quv darslarida hisobga oladi.

REFERENCES

1. R.A.Habib. "O'quvchilarni matematik tafakkurini shakllantirish". O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 1989-yil.
2. M.Jumayev. "Bolalarda matematik tusunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". Toshkent. "Ilm Ziya", 2005-yil
3. Элмуротова Д.М. (2019). Бошланғич синф ўқитувчисининг инновацион фаолиятга касбий тайёргарлигининг асосий кўрсаткичлари. ТДПУ Илмий Ахборотномаси, илмий-назарий журнал. –Тошкент, (1), 63-68.
4. Элмуратова Д. (2017). Проблемы подготовки будущих учителей начального образования к профессиональной деятельности. Интеграция науки и практики в современных условиях материалы VIII Международной конференции (pp. 91-93).
5. Ganiyeva M. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.